

**BARKAMOL AVLOD TARBIYACHISI SIFATIDA OTA - ONA MAS'ULIYATINI
OSHIRISH – DAVR TALABI****Radjabova Gulbahor Mamatraimovna****Termiz davlat pedagogika instituti****Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti****Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15770389>**

Annotatsiya. Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Zamonaviy ota-onalar orasida nafaqat farzandini to'g'ri tarbiyalashni istaganlar, balki har doim ham buni to'g'ri qilishni bilmaydiganlar ustunlik qiladi. Ушбу мақоламизда oila ta'lim salohiyatining tarkibiy qismlari va mezon ko'rsatkichlari, bola tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirishning ahamiyati tahlil qilingan.

Shuningdek, ota-ona ta'lim salohiyatini yaxshilashda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati haqida mulohaza qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim imkoniyatlari, ta'lim salohiyati, barkamol avlod, mas'uliyat, vakolat, hamkorlik va hamkorlik, zamonaviy maktab.

Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Har bir oila muayyan ta'lim imkoniyatlari yoki ta'lim salohiyatiga ega. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, oilaning mavjudligi avvalo ota va onaning o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liqdir. Tug'ilgan farzandning yetuk inson bo'lib voyaga yetishida ota-ona birlamchi rol o'ynaydi. Agar oilada ota va ona o'z vazifasi ijobiy bajarilsa, ya'ni bolada oilaga, ota-onaga, keksalarga hurmat, o'zaro yordam hislatlari shakllansa, u kelajakda oila qurgach, o'zi ham farzandlarini xuddi shunday tarbiyalashga intiladi.

Zero, muqaddas Xadis shariflarda ham ota va onaning tarbiyachilik maqomlari to'g'risida shunday deyilgan: «Hech bir ota-ona bolasiga yaxshi odobdan ortiq hadya bera olmaydi». Hazrat Alisher Navoiyni o'qir ekanmiz, uning «Farzand hayotda har bir narsadan a'lo, ustun va sevisga loyiq tabiat mujdosi. Shuning uchun ham bolaga ko'z-quloq bo'lmaslik, uni nazoratsiz qoldirish, o'z vaqtida to'g'ri tarbiya bermaslik, keyinchalik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin» degan purma'no so'zlari millatimizda farzand tarbiyasi borasida ota onaning mas'uliyati milliy qadriyat ekanligidan darak beradi.

Oiladagi muhit esa eng avvalo uni tashkil etuvchilar o'rtasidagi samimiy munosabatlarning xarakteriga bog'liqdir. Oilalarimizda har tomonlama sog'lom muhit hukmron ekan, farzandlarimiz barkamol voyaga yetadilar, fuqarolari barkamol jamiyat esa hech qachon zavol topmaydi. Jamiyat tayanchi sog'lom oila bo'lar ekan, farzandlari millat darajasida tafakkur qilishga qodir bo'lgan bunday yurt barqaror taraqqiyot yo'lidan og'ishmaydi, amalga oshirayotgan barcha islohotlarimiz albatta samara beradi.

Shunday qilib, oila – bu er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasida shakllangan munosabatlarning tarixiy tizimi, uning a'zolari bir-birlari bilan qarindosh-urug'chilik va nikoh bilan bog'langanlar. Ma'lumki, oila yaxshi va ma'qul an'analar va qadriyatlarni buzilmagan holda saqlab, ularni keyingi

avlodga yetkazish vazifasini bajarib kelgan. Shunga ko'ra, hozirgi kunda ham oilaning asosiy vazifalaridan biri – millatga xos bo'lgan avlodlar tarbiyasidagi uzluksizlikni ta'minlab berishdir.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bolani shaxs sifatida shakllanishi, orzu-umidlari qanot yozib kelajakka intilishlari oila muhitida qaror topadi. Oiladagi xayrixohlik, o'zaro munosabat atrof-muhitga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Olib borayotgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ota-ona obro'sining ko'tarilishi yoki pasayishida farzandlarning alohida o'rni bor.

Ayniqsa, pedagoglar, olimlar, rahbarlik lavozimida faoliyat yuritayotgan insonlarning oilalarida bu jarayon o'ziga xos xarakterga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Aynan rahbarlik lavozimlarida ishlaydigan xodimlarning 37 foizi oilada farzand tarbiyasiga alohida vaqt ajratib, ota-onalik mas'uliyatini unutmasliklari, vaqtlari tig'iz bo'lishiga qaramasdan farzandlari tarbiyasiga o'zgacha xavotir va tashvish bilan qarayotganligi hamda ota-onaning farzandlariga munosabati pedagogik-psixologik talablar darajasida ekanligi aniqlandi.

Ayniqsa, farzand ota-ona buyurgan uy yumushlarini o'z vaqtida bajarib borishi, o'qishga yoki ishga ketish oldidan ota-onadan ruxsat yoki fотиha olib chiqib ketishlari, imkon qadar ota-onaning ko'ngliga qarab odob bilan muomala qilishlari, ota-ona so'ragan paytda «labbay» deb javob berishlari oila sharoitida farzandni ota-ona oldidagi burchini to'g'ri ado etayotganligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar so'rovlarda shu bilan birga rahbar ota-onalar bola tarbiyasi uchun juda kam vaqt ajratayotganliklarini aniqlaganlar. rahbar ota-onalardan, birinchi navbatda, otalar bola tarbiyasi uchun deyarli vaqt ajrata olmasliklarini bildirishdi.

Rahbarlar, birinchi navbatda, pedagogik jamoada rahbar lavozimida ishlayotganlar, pedagoglar va murabbiylar hamisha ziyolilar sifatida xalq va elning nazarida bo'lganliklari uchun ham oila va oilaviy munosabatlar borasida ham barchaga ibrat bo'lishlari va o'z navbatida farzandlariga tarbiya va ta'lim berishda ham har tomonlama namuna bo'lishlari shart.

Rahbar va pedagoglar xalq ommasi orasida targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirganda, avvalo har bir ota va ona farzand kamolotidan birlamchi manfaatdor shaxslar ekanligini, oiladagi xotirjamlik, bag'ributunlik va salomatlikni asrash borasidagi o'z imkoniyatlaridan keng va to'la foydalanishga o'rgatishda yoshlarning oila va nikohga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlariga alohida e'tiborlarini qaratishlari lozim.

Demak, barkamol avlod uchun vatanparvarlik, yurtparvarlik zarur sifat ekanligini bilsak, avvalo ota - onalarni farzandlarning ko'z o'ngida o'z oilasi, mahallasi, shahri yoki qishlog'i, yurti qadriyatlariga sadoqatli, kasbida mukammal usta, istiqbolga ishongan, vatanparvar timsolida gavdalantirishga, birinchi navbatda voyaga yetmagan farzandlar bilan ishlashga, ularni tarbiyalashga o'rgatishimiz, ushbu masalaga bag'ishlangan ommabop risola va qo'llanmalar yaratishimiz kerak.

Farzandining mehnatsevar, hunarli, epli va aqlli bo'lishini hoxlagan ota-ona esa avvalo o'zi har bir qilgan amalida farosatli, didli, sabr-toqatli, har qanday maqsad-muddao oldida qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, halol va tirishqoq ekanligini ko'rsata olishi zarurdir.

Bola tarbiyasini ta'minlovchi barcha omillarni ona va ota bilishi shart. Bola ularni psixologik jihatdan idrok etar ekan, undan barcha xatti-harakatda o'rnak oladi. Oilaga bu ishda madad beruvchi ta'lim tashkilotlari esa har bir tarbiyalanuvchini qaysi oilaning farzandi ekanligi, undagi ota-ona – farzand munosabatlarining xarakterini bilagni xolda uning qalbiga yo'l topishi kerak. Mahalla faollari esa har bir xonadonda o'sib voyaga yetayotgan yoshlar tarbiyasining eng xalqbop,

qadriyatlarimizga asoslangan uslub va shakllarini o'rnida joriy etib, amalda "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi hamkorligi Konsepsiyasi"ning ijrosini ta'minlashlari darkordir.

Albatta, bularning barchasi avvalo farzandlarimiz qalbida istiqbolda mustahkam va ahil oila qurishga nisbatan intilishni shakllantiradi, demak, o'z say'i-harakatlarimiz bilan farzandlarimizni kelgusi hayotga tayyorlab boramiz. Eng muhimi oila qo'rg'onimizni but, sog'lom, munosabatlarimizni samimiy qilish vositasida yoshlarimizni turli xil zarrarli illatlar domidan, giyohvandlik, ahloqsizlik, dinsizlik, "ommaviy madaniyat"ning tahdidlaridan asrab qolamiz, albatta.

Ho'sh, yukoridagilardan kelib chiqib, ziyolilar, birinchi navbatda, o'qituvchi murabbiylar va maorif sohasining rahbarlari nimalarga e'tibor qaratishlari lozim?

Birinchidan, farzandlarimizni milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazishning dolzarbligini inobatga olib, oila muhiti va undagi ma'naviyatni barqarorlashtirishning eng ta'sirchan va amalda sinovlardan o'tgan usul va yondashuvlarni takomillashtirish;

Ikkinchidan, bola ongi shakllanishining ilk maskani oila ekanligidan kelib chiqib, ota-onalikning tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada kuchaytirishning moddiy va ma'naviy asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan chuqur o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Uchinchidan, milliy mentalitetimiz xususiyatiga ko'ra bola shaxsining tarbiyalanganlik darajasini belgilashda mahalla omilining roli katta, «Mahalla – ham ota, ham ona» degan naql ham bejiz emas. Shu bois mahallalar qoshida eng faol, ko'pni ko'rgan, ma'naviy darajasi yuksak fuqarolarning potentsiallaridan foydalangan holda turli o'quv markazlari, to'garaklar, Klublar, ijtimoiy ko'nikma maskanlari, maslahatxonalar, «Ishonch telefonlari» kabi ijtimoiy institutlar tashkil etish va ular samaradorligini monitoring qilish uslublarini takomillashtirishda shu mahalla xududida joylashgan maktabgacha ta'lim, umumo'rta ta'lim va kasb hunar ta'limi muassasalarining amaliy va ta'sirchan hamkorligini yo'lga qo'yish;

To'rtinchidan, oila muhiti va undagi sog'lom munosabatlarda ayolning roli katta ekanligidan kelib chiqib, qizlar tarbiyasi borasida onalar, maktab psixologi, mahalladagi diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslahatchiligi hamkorligini oshirishning ilg'or va ta'sirchan pedagogik psixologik usullarini takomillashtirish; qizlarni kasb hunarli va ma'lumotli bo'lishlariga katta e'tibor berish.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabova M. G., Makkaeva R. S. A., Mahluff A. Strategic framework for sustainable enterprise development //Sustainable Development of Modern Digital Economy: Perspectives from Russian Experiences. – Cham : Springer International Publishing, 2021. – C. 35-43.
2. Rajabova M. O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'LLARI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 7. – №. 7.
3. Mamatraimovna R. G. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДА БАЙРАМ ЕРТАЛИКЛАРИ //ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 3. – C. 282-287.
4. Gulbaxor R. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TURLI XIL MUSIQA FAOLIYATLARIGA

- O'RGATISH YO'LLARI: Radjabova Gulbaxor, maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti //Научнопрактическая конференция. – 2022. – С. 1106-1108.
5. Radjabova G. M. et al. Features of cognitive functions in patients with arterial hypertension with the presence/absence of chronic heart failure //The Peerian Journal. – 2022. – Т. 10. – С. 36-37.
6. Choriyeva S. C. TALABALARNI TA'LIMIY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI VA MANTIQUIY JIHATDAN TAHLILI //Educational Research in Universal Sciences.
7. Choriyeva S. C. et al. A MODEL FOR IMPROVING THE SYSTEM OF PREPARING STUDENTS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY ON THE BASE OF EDUCATIONAL VALUES //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Т.
8. №. 6 (INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCHER). – С. 283-285. – 2023. – Т. 2. – №. 9 SPECIAL. – С. 99-102.
9. Чориева С. Ч. и др. ИГРА КАК ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РЕБЕНКА ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 138-140.
10. Чориева С. Ч. УМЕНИЕ УЧИТЕЛЯ ИСПОЛЬЗОВАТЬ СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ //Экономика и социум. – 2024. – №. 10-2 (125). – С. 998-1001.
11. Choriyeva S. C. TALABALARNI TA'LIMIY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т.
12. №. 4 SPECIAL. – С. 1177-1181. 11. Choriyeva S. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА ТА'ЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ OSHIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.